


**«TASDIQLAYMAN»**  
 O'zbekiston davlat  
 sa'fat va madaniyat instituti rektori  
  
 N.B.Sayfullayev  
 2024-yil «22» 08

### Xalq ijodiyoti: folklor va etnografiya ta'lif yo'naliishiga

### Vazirlik tavsiyanomasi asosida qabul qilish suhbat

### BAHOLASH MEZONI

Talabgorga quyidagi mavzular bo'yicha har biridan bir donadan savol beriladi va umumiy maksimal 100 balgacha baholabadi. 55 va undan yuqori ball to'plagan talabgor suhbatdan o'tgan hisoblanadi.

<b>Nº</b>	<b>Mavzular</b>	<b>Maksimal ball</b>
1.	Mamlakatda folklor san'ati sohasiga oid amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushunish boyicha:	25
2.	Bakalavriat ta'lif yo'naliشini tanlashda motivatsiya (soha kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, unga doimiy qiziqish ko'rsatish) boyicha:	25
3.	Folklorshunoslikning sohaviy-kasbiy xususiyatlari (o'qishga qobiliyat, kasbiy vazifalarni hal qilishda amaliy faoliyat, intizomlilik, hamjihatlik, mas'uliyatlilik, qaror qabul qilishda mustaqillik darajasi, shaxsiy yutuqlar mavjudligi, shuningdek, o'z ustida ishslash va ijodkorlik qobiliyatlar) bo'yicha:	25
4.	Folklor va etnografiya bakalavriat ta'lif yo'naliishi sohasidagi bilim va kasbiy ko'nikmalarning mavjudligi bo'yicha:	25
<b>Jami</b>		<b>100</b>

### Berilgan savollariga talabgorning javobini baholash mezoni

<b>Nº</b>	<b>Baholash me'zonlari</b>	<b>Ball</b>
1.	Qo'yilgan savolga talabgor tomonidan to'liq, bat afsil javob berilib, mavzu haqida ongli bilimlar to'plami ko'rsatilsa va mavzuning asosiy qoidalari ishonchli tarzda ochib berilganda. Javobda aniq tuzilma hamda ochilgan tushunchalar, nazariyalar va hodisalarning mohiyatini aks ettiruvchi mantiqiy ketma-ketlik ifodalanganda. Javob adabiy tilda fan nuqtai nazaridan ifodalanganda. Bunda tushunchalarni ifodalashda, javob berish jarayonida talabgor tomonidan mustaqil ravishda tuzatilgan xatolar bo'lishi mumkin.	22-25
2.	Savolga to'liq, bat afsil javob berilib, mavzuning asosiy qoidalari aniq ochib berilganda. Javobda aniq tuzilma hamda ochilgan tushunchalar,	18-21

	nazariyalar va hodisalarning mohiyatini aks ettiruvchi mantiqiy ketma-ketlik ifodalanganda. Javob adabiy tilda fan nuqtai nazaridan ifodalanganda. Javobda suhbat komissiyasi a'zolari yordamida talabgor tomonidan tuzatilgan kamchiliklar bo'lishi mumkin.	
3.	Yetarlicha to'liq va yetarlicha batafsil javob berilmaganda. Javobning mantiqiyligi va ketma-ketligi buzilganda. Tushunchalarni ochishda, atamalardan foydalanishda xatolarga yo'l qo'yilganda. Talabgor muhim va muhim bo'lмаган xususiyatlarni, sabab-natija munosabatlarini mustaqil ravishda aniqlay olmaganda. U umumlashtirilgan bilimlarni konkretlashtirishda va ularning asosiy qoidalarini faqat o'qituvchi yordamida misollar bilan isbotlashi mumkin. Talabgor nutqida tuzatishlar talab qilinganda.	14-17
4.	Talabgor savol mavzusi boyicha ta'riflarda sezilarli xatolar bo'lgan tarqoq bilimlarni ifodalovchi to'liq bo'lмаган javob berganda. Tarqoq yoki mantiqsiz fikrlarni keltirganda. Savoldagi asosiy tushuncha, nazariya va hodisalarni boshqalari bilan bog'liqligini anglamaganda. Xulosa, konkretlashtirish va qoida hamda jarayonlarning isboti mavjud bo'lмаганда. Saviyasi nisbatan past nutqqa ega bo'lganda. Suhbat komissiyasi a'zolarining qo'shimcha va aniqlovchi savollari talabgorning nafaqat berilgan savolga, balki mavzu byicha boshqa savollariga ham qoniqarsiz javob berganda.	0-13

**Qabul komissiyasi mas'ul kotibi**

**S.Turatov**